

(2022- yil yanvar-avgust oylari  
uchun dastlabki ma'lumot)




## NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-avgust oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **766,7** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **94,0 %** ni tashkil etdi.




## TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollar)

	2021- yil	2022- yil	O'tgan yilga nisbatan, % da	Jamiga nisbatan, % da
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	816,0	766,7	94,0	x
<b>Eksport</b> 	325,1	390,3	120,1	100,0
 <b>tovarlar</b>	316,9	388,4	122,5	99,5
 <b>xizmatlar</b>	8,2	1,9	23,3	0,5
<b>Import</b> 	490,9	376,4	76,7	100,0
 <b>Tovarlar</b>	465,4	367,4	78,9	97,6
 <b>xizmatlar</b>	25,5	9,0	35,3	2,4
<b>Saldo</b> 	- 165,8	13,9	x	x

*Ma'lumot uchun: Navoiy viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rnlarda TIF TN) bilan birlashtirilgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rnlarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhash uchun imkon beradi. Tovalarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

Navoiy viloyati jahoning **69** ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (**19,9 %**), Xitoy Xalq Respublikasida (**19,2 %**), Kanada (**15,8 %**), Fransiyada (**8,1 %**) va Qozog'istonda (**7,8 %**) qayd etilgan.

## NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2022-yil yanvar-avgust, mln. AQSH dollarri, ulushi, % da)



Davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	152,3	57,6	94,7	19,9
Xitoy Xalq Respublikasi	147,2	31,7	115,5	19,2
Kanada	120,9	117,6	3,3	15,8
Fransiya	62,2	60,4	1,8	8,1
Qozog'iston	59,5	15,5	44,0	7,8
Turkiya	51,8	32,6	19,2	6,8
Turkmaniston	23,5	22,3	1,2	3,1
Qirg'iz Respublikasi	17,9	16,2	1,7	2,3
Koreya Respublikasi	15,8	0,1	15,7	2,1
Hindiston	14,5	-	14,5	1,9

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnni bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston, Turkmaniston va Qирг'из Республикаси bilan TSA da so'ngi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'ngi uch yilda TSA Qozog'iston, Turkmaniston, Qирг'из Республикаси, Afg'oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Республикаси, Kanada, Fransiya, Turkiya, Koreya Республикаси, Hindiston, Litva, Germaniya, Eron Islom Республикаси va Ukraina hissasiga to'g'ri kelgan.

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollar'i)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>101,4</b>	<b>142,1</b>	<b>152,3</b>
<i>Eksport</i>	22,6	38,8	57,6
<i>Import</i>	78,8	103,3	94,7
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>116,2</b>	<b>135,1</b>	<b>147,2</b>
<i>Eksport</i>	28,0	69,2	31,7
<i>Import</i>	88,2	65,9	115,5
<b>Kanada</b>	<b>79,0</b>	<b>135,8</b>	<b>120,9</b>
<i>Eksport</i>	78,0	131,6	117,6
<i>Import</i>	1,0	4,2	3,3
<b>Fransiya</b>	<b>79,4</b>	<b>2,5</b>	<b>62,2</b>
<i>Eksport</i>	78,3	-	60,4
<i>Import</i>	1,1	2,5	1,8
<b>Qozog'iston</b>	<b>37,2</b>	<b>40,5</b>	<b>59,5</b>
<i>Eksport</i>	5,0	10,2	15,5
<i>Import</i>	32,2	30,3	44,0
<b>Turkiya</b>	<b>42,8</b>	<b>51,2</b>	<b>51,8</b>
<i>Eksport</i>	19,6	25,0	32,6
<i>Import</i>	23,2	26,2	19,2
<b>Turkmaniston</b>	<b>15,0</b>	<b>17,4</b>	<b>23,5</b>
<i>Eksport</i>	14,5	16,2	22,3
<i>Import</i>	0,5	1,2	1,2
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>32,9</b>	<b>3,5</b>	<b>17,9</b>
<i>Eksport</i>	32,5	3,1	16,2
<i>Import</i>	0,4	0,4	1,7
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>42,4</b>	<b>18,2</b>	<b>15,8</b>
<i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,1
<i>Import</i>	42,3	18,1	15,7
<b>Hindiston</b>	<b>2,7</b>	<b>1,8</b>	<b>14,5</b>
<i>Eksport</i>	-	0,1	-
<i>Import</i>	2,7	1,7	14,5

## NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollar)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Litva</b>	<b>45,0</b>	<b>65,2</b>	<b>13,5</b>
<i>Eksport</i>	2,7	9,7	9,3
<i>Import</i>	42,3	55,5	4,2
<b>Germaniya</b>	<b>35,4</b>	<b>10,1</b>	<b>12,8</b>
<i>Eksport</i>	0,2	-	-
<i>Import</i>	35,2	10,1	12,8
<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>2,6</b>	<b>6,4</b>	<b>10,0</b>
<i>Eksport</i>	-	1,3	2,9
<i>Import</i>	2,6	5,1	7,1
<b>Ukraina</b>	<b>11,8</b>	<b>14,5</b>	<b>9,8</b>
<i>Eksport</i>	1,6	0,9	0,4
<i>Import</i>	10,2	13,6	9,4
<b>Afg'oniston</b>	<b>0,6</b>	<b>5,8</b>	<b>7,8</b>
<i>Eksport</i>	0,6	5,8	7,8
<i>Import</i>	-	-	-
<b>Estoniya</b>	<b>6,9</b>	<b>2,9</b>	<b>6,2</b>
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	6,9	2,9	6,2
<b>Singapur</b>	<b>3,2</b>	<b>4,9</b>	<b>5,3</b>
<i>Eksport</i>	3,0	4,9	5,3
<i>Import</i>	0,2	-	-
<b>Tojikiston</b>	<b>0,6</b>	<b>1,6</b>	<b>4,3</b>
<i>Eksport</i>	0,6	1,4	4,3
<i>Import</i>	-	0,2	-
<b>Yaponiya</b>	<b>4,5</b>	<b>15,6</b>	<b>4,1</b>
<i>Eksport</i>	0,2	-	-
<i>Import</i>	4,3	15,6	4,1
<b>Tayvan</b>	-	<b>0,1</b>	<b>2,5</b>
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	0,1	2,5

## NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-avgust)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollarari	O'tgan yilga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>766 700,3</b>	<b>94,0</b>
Navoiy sh.	428 228,8	80,4
Zarafshon sh.	5 775,4	57,6
G'ozg'on sh.	2 045,1	157,6
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	220 656,4	119,3
Konimex	249,5	15,0
Qiziltepa	55 332,2	3,9 b.
Navbahor	26 821,0	139,3
Nurota	6 154,1	82,1
Tomdi	1 823,9	44,5
Uchquduq	13 320,9	3,8 b.
Xatirchi	5 471,1	18,0
Bo'linmaydigan hajm	821,9	-




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **55,9 %** ulush bilan **428 228,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Konimex tumani **0,03 %** ulush bilan **249,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan choratadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar-avgust oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **35,3 %** ni tashkil etdi.

## NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollarri, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-avgust oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan **84,1 %** ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi **64,7 %** ni tashkil etdi.

## NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-avgust)



Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi **390,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,1** % ni tashkil etdi.

### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**59,4** %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**23,0** %), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**8,6** %) hissasiga tog'ri kelmoqda.




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2021	2022		
Jami eksport	325,1	390,3	120,1	100,0
shu jumladan:				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,1	12,1	80,3	3,1
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	-	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	22,2	33,6	151,2	8,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,6	5,3	3,3 b.	1,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,3	-	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	203,7	232,1	113,9	59,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	65,0	89,9	138,4	23,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	0,4	2,6	5,9 b.	0,7
Turli xil tayyor buyumlar	8,9	12,4	139,3	3,2
Xizmatlar	8,2	1,9	23,3	0,5

2022- yilning yanvar-avgust oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2021- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2021- yilning mos davriga nisbatan mashinalar va transport asbob-uskunalar, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari, turli xil tayyor buyumlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarning eksport tarkibida o'sish kuzatildi.




### NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollarri)




Navoiy viloyatida 2022- yil yanvar-avgust oylarida eksport hajmi **390,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollarri, ulushi, % da)



2022- yilning yanvar-avgust oylarida MDH mamlakatlariga **118,5** mln. AQSH dollarri qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **30,4** % ini tashkil etdi.

### NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-avgust, % da)



2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Kanada (eksport umumiy hajmining **30,1** %), Fransiya (**15,5** %), Rossiya Federatsiyasi (**14,8** %), Turkiya (**8,3** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**8,1** %), Turkmaniston (**5,7** %) va Qirg'iz Respublikasi (**4,1** %), saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagagi ulushi **86,6** % ni tashkil etmoqda.



Davlatlar	Ming AQSH dollarari		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2021	2022		
Kanada	131 584,3	117 641,8	89,4	1
Fransiya	0,1	60 427,3	-	2
Rossiya Federatsiyasi	38 811,4	57 581,4	148,4	3
Turkiya	24 959,6	32 551,3	130,4	4
Xitoy Xalq Respublikasi	69 165,6	31 675,8	45,8	5
Turkmaniston	16 231,4	22 327,8	137,6	6
Qirg'iz Respublikasi	3 138,2	16 177,6	5,2 b.	7
Qozog'iston	10 177,1	15 531,5	152,6	8
Litva	9 735,3	9 308,0	95,6	9
Afg'oniston	5 805,7	7 793,9	134,2	10
Singapur	4 894,5	5 253,7	107,3	11
Tojikiston	1 405,9	4 252,2	3,0 b.	12
Eron Islom Respublikasi	1 304,3	2 875,1	2,2 b.	13
Polsha	411,8	1 534,1	3,7 b.	14
Ozarbayjon	62,8	1 015,4	16,2 b.	15
BAA	1 197,8	984,1	82,2	16
Belarus Respublikasi	1 139,5	700,9	61,5	17
AQSH	658,2	435,8	66,2	18
Ukraina	921,4	404,6	43,9	19
Pokiston	1 481,4	351,0	23,7	20

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni **40** tani tashkil etdi.

## NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2022- yil yanvar-avgust)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollarari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	390 334,5	120,1
Navoiy sh.	268 429,4	110,7
Zarafshon sh.	462,4	16,5
G'ozg'on sh.	1629,3	4,5 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	51 548,8	193,4
Konimex	208,1	120,7
Qiziltepa	39 819,0	4,9 b.
Navbahor	18 936,4	139,7
Nurota	3 890,4	125,8
Tomdi	721,4	101,2
Uchquduq	775,9	67,5
Xatirchi	3 546,2	14,5
Bo'linmaydigan hajm	367,2	-



Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **68,8 %** ulush bilan **268 429,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Konimex tumani **0,1 %** ulush bilan **208,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORT DINAMIKASI

(yanvar-avgust, % da)

XSST tarkibi	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,1	4,6	3,1
Ichimliklar va tamaki	-	-	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	6,4	6,8	8,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,4	0,5	1,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	68,7	62,7	59,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	14,8	20,0	23,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,8	0,1	0,7
Turli xil tayyor buyumlar	4,5	2,8	3,2
Xizmatlar	1,3	2,5	0,5

2022- yil yanvar-avgust oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari ulushi **8,2** punktga oshib **23,0** % ni, nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari tovarlari ulushi **2,2** punktga oshib **8,6** % ni tashkil etdi.


## NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollarri)



XSST tarkibi	Kanada		Fransiya		Rossiya Federatsiyasi		Turkiya	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Jami eksport	131,6	117,6	-	60,4	38,8	57,6	25,1	32,7
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	-	-	1,0	0,6	-	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	-	-	15,8	23,5	1,6	1,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	-	-	-	-	0,3	0,3	1,2	4,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar	130,6	117,5	-	60,4	-	0,5	0,5	-
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	1,0	0,1	-	-	11,3	22,6	19,1	26,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	-	-	-	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	-	-	6,7	9,3	-	-
Xizmatlar	-	-	-	-	3,7	0,8	2,7	0,6

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari kiradi.

## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi **1,9** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **0,5** % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **23,3** % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**62,8** %), moliyaviy xizmatlar (**20,7** %) va safarlar (turizm xizmatlari) (**16,5** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2022- yil yanvar-avgust, ming AQSH dollar)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **5 968,1** ming AQSH dollar qiymati **8 732,4** tonna meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2021- yilning mos davriga nisbatan **73,2** % ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida **1,5** % ni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Qiziltepa tumanida **2 195,3** ming AQSH dollarini, Xatirchi tumanida **2 120,9** ming AQSH dollarini, Karmana tumanida **773,1** ming AQSH dollarini va Navbahor tumanida **583,2** ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2022- yil yanvar-avgust)



Davlatlar	2021- yil			2022- yil		
	Tonna	Ming AQSH dollarri	Ulushi*, % da	Tonna	Ming AQSH dollarri	Ulushi*, % da
Qozog'iston	6 765,6	3 243,6	39,8	4 290,1	1 486,3	24,9
Xitoy Xalq Respublikasi	128,0	119,5	1,5	1 081,0	1 323,2	22,2
Eron Islom Respublikasi	1 060,0	1 064,0	13,0	883,0	988,6	16,6
Afg'oniston	672,3	543,3	6,7	822,5	574,2	9,6
Rossiya Federatsiyasi	174,4	254,1	3,1	567,1	556,1	9,3
Pokiston	468,5	1 481,2	18,2	174,3	334,7	5,6
Turkiya	-	-	-	142,3	158,9	2,7
Belarus Respublikasi	1 086,9	684,4	8,4	243,3	151,2	2,5
Ukraina	51,9	31,6	0,4	189,0	116,3	1,9
Iraq	110,9	123,8	1,5	119,8	97,1	1,6
Polsha	-	-	-	84,2	72,7	1,2
Litva	20,7	3,2	0,1	79,5	36,8	0,6
Bolgariya	-	-	-	21,0	31,5	0,5
Isroil	-	-	-	13,5	27,0	0,5
Estoniya	232,0	42,9	0,5	19,5	9,8	0,2
Tojikiston	-	-	-	2,3	3,7	0,1
Boshqa davlatlar	653,4	564,4	6,8			

\* qiymat ifodasidan

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (**24,9** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**22,2** %), Eron Islom Respublikasi (**16,6** %) va Afg'oniston (**9,6** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.


## NAVOIY VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-avgust)



2022- yil yanvar-avgust oylarida import hajmi **376,4** mln. AQSH dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan **76,7 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (**39,9 %**), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**23,4 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**18,2 %**) ga to'g'ri keldi.

## XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi **367,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **9,0** mln. AQSH dollariga yetdi.




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollarri		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2021	2022		
Jami import	490,9	376,4	76,7	100,0
shu jumladan:				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	16,2	9,9	61,2	2,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,6	9,1	2,5 b.	2,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,6	9,5	15,1 b.	2,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,3	1,4	5,0 b.	0,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	53,5	68,3	127,5	18,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	74,6	88,0	117,9	23,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	281,9	150,3	53,3	39,9
Turli xil tayyor buyumlar	34,7	30,9	89,1	8,2
Xizmatlar	25,5	9,0	35,3	2,4

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (**39,9 %**), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**23,4 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**18,2 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**8,2 %**) hissasiga to'g'ri keladi.

Import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiyligi hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2021- yilning mos davriga nisbatan mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**15,1** barobar), hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar (**5,0** b.), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**2,5** b.), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**27,5 %**) va asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**17,9 %**) o'sgan.



### NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollarri)




Navoiy viloyatida 2022- yil yanvar-avgust oyida import hajmi **376,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollar, ulushi, % da)




MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich **40,3** va **59,7** % ni tashkil etdi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Koreya Respublikasi, Hindiston va Germaniya) jami importning **84,2** % ini tashkil qiladi, bu **316,4** mln. AQSH dollarini tashkil etadi.

## NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022-yil yanvar-avgust, % da)



## NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming AQSH dollarri		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2021	2022		
Xitoy Xalq Respublikasi	65 863,8	115 458,1	175,3	1
Rossiya Federatsiyasi	103 329,8	94 698,9	91,6	2
Qozog'iston	30 303,6	44 017,2	145,3	3
Turkiya	26 163,2	19 207,3	73,4	4
Koreya Respublikasi	18 111,3	15 653,8	86,4	5
Hindiston	1 721,8	14 517,5	8,4 b.	6
Germaniya	10 068,3	12 824,3	127,4	7
Ukraina	13 581,7	9 348,4	68,8	8
Eron Islom Respublikasi	5 051,2	7 122,8	141,0	9
Estoniya	2 863,9	6 204,0	2,2 b.	10
Litva	55 473,1	4 145,2	7,5	11
Yaponiya	15 588,9	4 088,6	26,2	12
Kanada	4 249,2	3 327,7	78,3	13
Tayvan	52,4	2 539,4	48,4 b.	14
Fransiya	2 520,4	1 814,8	72,0	15
Finlyandiya	934,4	1 713,8	183,4	16
Qirg'iz Respublikasi	355,0	1 698,4	4,8 b.	17
AQSH	91 635,0	1 634,6	1,8	18
Pokiston	4,6	1 485,5	320,0 b.	19
Italiya	6 396,2	1 430,1	22,4	20

2022- yil yanvar-avgust oylari yakuni bo'yicha **57** ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

## NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2022- yil yanvar-avgust)

Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollarini	O'tgan yilga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>376 365,8</b>	<b>76,7</b>
Navoiy sh.	159 799,4	55,0
Zarafshon sh.	5313,0	73,5
G'ozg'on sh.	415,8	44,6
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	169 107,6	106,8
Konimex	41,4	2,8
Qiziltepa	15 513,2	2,6 b.
Navbahor	7 884,6	138,3
Nurota	2 263,7	51,4
Tomdi	1 102,5	32,6
Uchquduq	12 545,0	5,4 b.
Xatirchi	1 924,9	32,8
Bo'linmaydigan hajm	454,7	-

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollarini

**Karmana t. – 169 107,6**

**Navoiy sh. – 159 799,4**

**Qiziltepa t. – 15 513,2**

**Eng quyisi hajm,**  
ming AQSH dollarini

**Tomdi t. – 1 102,5**

**G'ozg'on sh. – 415,8**

**Konimex t. – 41,4**

Viloyatning import tarkibida eng yuqori ulushni Karmana tumani **44,9** % ulush bilan **169 107,6** ming AQSH dollarini, eng quyisi ulushni esa Konimex tumani **0,01** % ulush bilan **41,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, % da)


XSST tarkibi	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,3	3,3	2,6
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,6	0,7	2,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	0,1	0,1	2,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,1	0,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar	12,6	10,9	18,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	13,5	15,2	23,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	61,5	57,4	39,9
Turli xil tayyor buyumlar	6,7	7,1	8,2
Xizmatlar	3,7	5,2	2,4

2022- yil yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlarida 2021- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi **15,2 %** dan **23,4 %** gacha, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlarda importining ulushi **10,9 %** dan **18,2 %** gacha, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallarda esa **0,1 %** dan **2,5 %** gacha o'sdi.

2022- yil yanvar-avgust oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **9,0** mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining **2,4** % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **35,3** % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**63,8** %), safarlar (turizm xizmatlari) (**0,2** %) va boshqa xizmatlar (**36,0** %) dan iborat bo'ldi.



### XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi**

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va**

**savdo statistikasi bo'limi**

**Tel.: (99879) 223-50-43**